



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRINING BUYRUG'I

Maktabgacha va maktab ta'lifi vazirligida Atamalar bo'yicha ishchi guruhi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining "Davlat tilini rivojlantirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari ijrosini ta'minlash masalalari to'g'risida" 2023-yil 30-avgustdagি 80-son bayonining 12-bandiga asosan **buyuraman:**

1. Vazirlar Mahkamasi Rayosati majlisining 2023-yil 30-avgustdagи "Davlat tilini rivojlantirish bo'yicha qonunchilik hujjatlari ijrosini ta'minlash masalalari to'g'risida" 80-son bayonining 12-bandida Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari va xo'jalik birlashmalarining markaziy apparatlarida sohaga oid yangi so'z va zamonaviy atamalarning o'zbekona muqobillari hamda ularni bir xilda qo'llash yuzasidan takliflar ishlab chiqish asosiy vazifasi bo'lgan Atamalar bo'yicha ishchi guruhi tashkil etish vazifasi belgilanganligi ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Maktabgacha va maktab ta'lifi sohasiga oid so'z hamda atamalarni aniq va bir xilda qo'llanishini muvofiqlashtirish bo'yicha ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta'lifi sohasiga oid so'z hamda atamalarni aniq va bir xilda qo'llanishini muvofiqlashtirish bo'yicha ishchi guruhi (keyingi o'rirlarda – Ishchi guruhi) to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ishchi guruhining asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilansin:

vazirlik tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining huquqiy ekspertizasi doirasida ularda ishlatilayotgan yuridik tushuncha hamda atamalarni boshqa normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalari bilan aniq hamda bir xilda ta'riflanishi, ishlatilishi, shuningdek, mazkur loyihalarga yangi tushuncha va atamalarni joriy etish yuzasidan asoslantirilgan takliflarni kiritish;

maktabgacha va maktab ta'lifi sohasiga oid ishlab chiqiladigan o'quv-metodik qo'llanmalar loyihalaridagi so'z va atamalarni o'zbek adabiy tili meyorlariga muvofiq yagona shaklda va to'g'ri qo'llanishini ta'minlash;

maktabgacha va maktab ta'lifi sohasida ish hujjatlarini yuritishda o'zbek adabiy tili meyorlariga amal qilish choralarini ko'rish;

vazirlik xodimlarining o'zbek tilida ish yuritish bo'yicha kasbiy kompetensiyasini doimiy ravishda takomillashtirib borish.

4. Vazirning birinchi o‘rinbosari (U.Sharifxodjayev) Ishchi guruhi faoliyatini va unga yuklangan vazifalarning samarali bajarilishini tashkil etishga mas’ul etib belgilansin.

5. Belgilansinki, Ishchi guruhi a’zolari o‘z yo‘nalishlari doirasida vujudga kelgan yangi so‘z va atamalarni Ishchi guruhi muhokamasi uchun taqdim etib borish yuzasidan mas’ul hisoblanadi.

6. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (I.Eshqobilov), Moliya-iqtisod departamenti (I. Siradjev) Atamalar bo‘yicha Ishchi guruhi a’zolari va Ishchi guruhiga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda faol bo‘lgan xodimlarni rag‘batlantirish yuzasidan taklif kiritib borsin.

7. Devonxona (D.Isxakova) bir kun muddatda ushbu buyruqni vazirlikning tarkibiy bo‘linmalariga yetkazilishini ta’milasini.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2023-yil “19”-sentabr,
333-son